



ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA XAVFSIZLIK CHORALARINI QO'LLASH ASOSLARI VA PROTSESSUAL TARTIBI

Ashurov Nodir Nayimovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Ilmiy mutaxassisligi: 12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,

tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15582354>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEYWORDS

xavfsizlik, huquqiy xavfsizlik,
shaxsiy daxlsizlik, gumon
qilinuvchi, ayblanuvchi,
sudlanuvchi, jabrlanuvchi,
guvoh, boshqa shaxslar,
dalillar.

ABSTRACT

Maqolada jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalalari atroflicha tahlil qilingan. Muallif maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilarining xavfsizligi masalalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilgan holda o'rgangan. Maqolada muallif tomonidan jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish, qonunchilikda jinoyat protsessi ishtirokchisi bo'lgan ayrim shaxslarning xavfsizligini ta'minlash nazarda tutilmaganligi ilmiy tahlil qilingan va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi, qonun va qonun osti hujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlari asosida ta'minlanadi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 80ga yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan 160dan ziyod, Yuneskoda 70dan ortiq, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan 30dan ortiq, turli mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ham ko'plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnoma, konvensiya va paktlar qabul qilingan. Hozirgi kunda inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha

500ga yaqin xalqaro hujjatlar qabul qilingan.

"Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" inson huquqlari himoyasini xalqaro doirada to'la kafolatlaydigan, jahonning 360 dan ortiq tillariga tarjima qilingan va jahonning 90 dan ortiq davlatlari konstitutsiyalarida o'z aksini topgan.

Mazkur fikrlar har tomondan asoslidir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ham 60 ga yaqin xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Xususan, jinoyat protsessida xavfsizlik va uni ta'minlashning turli masalalarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarga "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya", "Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risida"gi pakt, "Qiynoqlarga va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga qarshi

kurash konvensiya” , “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya” , “Jinoyat protsessi ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risidagi kelishuv” va boshqalar.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 3-moddasida «insonning shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega» ekanligi, 5-moddasida «hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rllovchi muomala va jazoga duchor etilmas»ligi, 9-moddasida «hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi va quvg‘in qilinishi mumkin emas»ligi to‘g‘risidagi qoidalar bevosita protsess ishtirokchisining xavfsizligini ta‘minlashga sxizmat qiladi.

Ayni mazkur normalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlarida ham o‘z aksini topgan.

«O‘zbekiston Respublikasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustun ekanligi» konstitutsiyaviy asosda belgilab qo‘yilgan.

M.Cho‘tboyev «inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘z ichki qonunlarining xususiyatlariga asoslanadi» deya fik bildirgan bo‘lsa, Sh.F.Fayziyev esa «shaxsiy daxlsizlik fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplaridan biridir» deb ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida «fuqarolarni huquqiy himoya qilishning kafolatlanishi»; 27-moddasida «hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi va qamoqda saqlanishi mumkin emasligi»;

55-moddasida «har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanganligi» mustahkamlangan.

Asosiy huquq va erkinliklarga asoslangan shaxsning konstitutsiyaviy maqomi uning jinoyat-protsessual maqomining dastlabki tamoyillarini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, jinoyat protsessining har qanday ishtirokchisining maqomi majburiy element sifatida fuqarolarning konstitutsiyaviy maqomini o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyaviy qoidalar, shuningdek jinoyat protsessi sohasida shaxsning daxlsizligining asosiy shartini belgilaydi. Bu ayni paytda xavfsizlik kafolati – aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi bo‘lib, jinoiy ta‘qibning qonuniyligi va asosliligiga yordam beradi. Ushbu prinsipga muvofiq, “gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanguniga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlanguniga qadar aybsiz hisoblanadi” .

L.V.Brusnitsinning fikricha, “jinoyat ishlarini ko‘rish jarayonida insonning ishtiroki uning himoyalani darajasining pasayishiga olib kelmasligi lozim. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining o‘z protsessual maburiyatlarini bajarishi keyinchalik unga nisbatan xavfli ta‘sir ko‘rsatilishi ehtimolini keltirib chiqargan hollarda, uning xavfsizligi tegishli vakolatli organlar tomonidan kafolatlanishi lozim .

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizlik huquqi Konstitutsiya normalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, uning huquqiy qoidalari asosida Jinoyat protsessual qonunchiligi normalari jinoyat protsessi sohasida ishtirok etgan shaxsni xavfsizligi yuqori darajada himoya qilinishini kafolatlaydi. Konstitutsiyaviy qoidalar shaxs xavfsizligi kafolatlarini yaratish, takomillashtirish, shu jumladan jinoiyat protsessning barcha bosqichlarida xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmni ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

Jinoyat protsessida xavfsizlik obyektlarining xavfsizligi holatini tartibga soluvchi tarmoq qonunchiligi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarning muhim ro'yxati bilan ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 238-moddasiga muvofiq, "surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoxud ishni sudda ko'rish chog'ida yolg'on ko'rsatuvlar berish uchun guvohni yoki jabrlanuvchini yoki yolg'on xulosa berish uchun ekspertni yoxud noto'g'ri tarjima qilish uchun tarjimoni pora evaziga og'dirib olish, xuddi shuningdek, ularga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish orqali yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilish", shuningdek 239-moddasida "surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilish^N javobgarlik nazarda tutilgan .

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida mahkumlarning shaxsiy xavfsizlik huquqi mustahkamlangan (11-modda). Shu bilan birga, "intizomiy qismga jo'natishga yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning shaxsiy xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan taqdirda, u o'z shaxsiy xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi ariza (xabar) bilan jazoni ijro etish muassasasining yoki organining har qanday xodimiga og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilishga haqli. Mahkumning arizasini (xabarini) qabul qilgan xodim zudlik bilan uni jazoni ijro etish muassasasining yoki organining boshlig'iga taqdim etadi".

O'zbekiston Respublikasining "Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalaridan biri sifatida "inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki himoya qilinishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash" nazarda tutilgan .

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 2-moddasida "fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan iborat" ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonunning

10-moddasi birinchi qismida "Advokatning kasbga oid huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan qo'riqlanadi. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek, advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi".

O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining

15-moddasida "xavfsizlik choralari" hamda 6-moddasida "ijtimoiy himoya qilish choralari" doirasida himoya qilinadi .

Himoya qilinuvchi shaxs jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan unga nogironlikni keltirib chiqaruvchi tan jarohati yetkazilgan yoki uning sog'lig'iga boshqacha ziyon yetkazilgan taqdirda, himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organning qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi va nogironlik pensiyasi tayinlanadi.

Himoya qilinuvchi shaxs jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan unga nogironlikni keltirib chiqarmaydigan tan jarohati yetkazilgan yoki uning sog'lig'iga boshqacha ziyon yetkazilgan taqdirda, himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organning qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi.

Himoya qilinuvchi shaxs jinoyat protsessida ishtirok etganligi munosabati bilan halok bo'lgan (vafot etgan) taqdirda, agar uning oila a'zolari va uning qaramog'ida bo'lgan shaxslar turli bir yo'la beriladigan nafaqalar olish huquqiga ega bo'lsa, bir yo'la beriladigan nafaqalardan bittasi ularga o'z tanloviga ko'ra tayinlanadi.

Tan jarohati yetkazilgan yoki sog'lig'iga boshqacha ziyon yetkazilgan taqdirda, bir vaqtning o'zida turli bir yo'la beriladigan nafaqalarni olish huquqiga ega bo'lgan himoya qilinuvchi shaxslarga o'z tanloviga ko'ra bir yo'la beriladigan nafaqalardan bittasi tayinlanadi.

Himoya qilinuvchi shaxsga jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan yetkazilgan mulkiy zararining o'rnini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanib, keyinchalik ushbu mablag'lar himoya qilinuvchi shaxsga mulkiy zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan shaxsdan undirilishi lozim.

Davlat tomonidan muhofaza qilish choralarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni faqat muayyan protsessual maqomga ega bo'lgan jinoyat protsessi ishtirokchilariga (jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ekspert va boshqa), balki jinoyat protsessining barcha ishtirokchilariga, shuningdek ushbu jinoyat protsessiga aloqador, ammo hech qanday maqomga ega bo'lmagan boshqa shaxslarga (ariza beruvchi, shohid, jinoyat qurboni va boshqa) nisbatan ham qo'llanilishi nazarda tutilmagan.

Fikrimizcha, Jinoyat-protsessual kodeksi normalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish orqali, jinoyat protsessining barcha ishtirokchilari, shuningdek, jinoyat protsessi davomida xavfsizlik choralari qo'llashga ehtiyoj bo'lgan, ammo hech qanday protsesual maqomga ega bo'lmagan boshqa shaxslarga ham himoya choralarini qo'llashni nazarda tutuvchi qoidalarni kiritish lozim.

Shu bilan birgalikda, Ichki ishlar organlarida davlat muhofazasiga olingan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash uchun bo'linmalar tashkil etilishi, ushbu bo'linmalar vakolatiga xavfsizlik choralarini amalga oshirishdan tashqari, tahdid manbasini aniqlash bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishni ham kiritish lozim.

A.Umarxonovning fikricha, "jamiyat hayotidagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarning keskin o'zgarganligi, jinoyatchilikning uyushgan tusga va davlatlararo miqyosga ega bo'layotganligi, jinoiy tuzilmalarning qurollanish darajasi ortib borayotganligi kabi bir qator omillar jinoyatlarni tergov qilish va ochishga to'sqinlik qilishning yangi va nihoyatda xavfli shakllari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, huquqni muhofaza qilish organlarining dalillar manbai bo'lgan guvohlar va jabrlanuvchilarni himoya qilishga hamda xavfli, ilgari ma'lum bo'lmagan ijtimoiy-huquqiy hodisaga qarshi kurashishga, uning oldini olishga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rilishi zarurati kelib chiqayotganini anglatadi".

Fikrimizcha, himoya qilinayotgan shaxsni qo'riqlash to'g'risidagi masala, ya'ni odil sudlovga kumaklashuvchi shaxslarga o'tkazilayotgan tazyiqni bartaraf etish borasidagi tadbirlarni kim va qanday asoslarda amalga oshirishi, ximoya choralarini qullash muddatlari,

ximoya kilinadigan shaxslar bilan xuquqni muxofaza qilish organlarining xodimlari o'rtasidagi uzaro munosabatlar tartibi xam munozarali masala hisoblanadi. Chunki, JPKning 270-moddasiga asosan, "ishda ishtirok etayotgan shaxslarning xayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va mulkining himoyasini ta'minlash choralari kurish majburiyati yuklatilgan" ichki ishlar organlarida hozirgi paytda odil sudlovga kumaklashuvchi shaxslar ximoyasini ta'minlashning protsessual choralari amalga oshirish uchun moddiy-texnikaviy imkoniyatlar yetishmaydi.

Qanchalik murakkab va katta mablag' talab etilishi lozim bo'lsada jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash bilan shugullanadigan aloxida tezkor kidiruv organlari tizimida yangi tuzilmalarni tashkil etish bugungi kunning talabi ekanligini anglashimiz va bu boradagi islohotlarni og'ishmasdan amalga oshirishimiz bugungi zamon talabi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Shuni nazarda tutish kerakki, jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlarini muhofaza qilish holati tegishli huquq sohalarida (jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya va boshqalar) huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

M.I.Baytin haqli ravishda ta'kidlaganidek, "ilmiy adabiyotlarda u yoki bu turdagi o'zaro aloqador, bir-biriga yaqin munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmui huquq instituti yoki huquqiy institut deb ataladi". Murakkab huquq institutining o'ziga xos xususiyati unda asosiy qoidalarini tartibga soluvchi bir necha huquq tarmoqlarining mavjudligi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda yangi huquqiy institut – murakkab tarmoqlararo institut bo'lgan jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash instituti shakllantirish g'oyasini ilgari surgan mualliflarning fikriga qo'shilish lozim.

Ushbu obyektlarning xavfsizligi holatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning ta'sirchan ro'yxatiga qaramay, ilmiy adabiyotlarda jinoyat protsessida xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy protsessidagi kamchiliklar to'g'risida asosli fikrlar bildirilgan.

Xavfsizlikning huquqiy asoslarini tahlil qilish va uni jinoyat protsessida ta'minlash har bir protsess ishtirokchisi, shuningdek ushbu sohada ishtirok etgan, ammo protsessual maqomga ega bo'lmagan boshqa shaxslarning (ariza beruvchi, shohid, jinoyat qurboni, jinoyat sodir etilishining oldini olish yoki oshkor qilishga hissa qo'shadigan shaxslar) ham xavfsizligi kafolatlanishi, ya'ni ularning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari hamda mulkini himoya etilishini talab qilish huquqiga ega degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Ushbu huquq jinoyat ishini yuritadigan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning protsessual maqomidan qat'iy nazar, ushbu sohaga aloqador barcha shaxslarning xavfsizligini ta'minlash burchiga mos kelishi lozim.

References:

1. Saidov A., Sultonov A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. –T.: Adolat, 1998. –B.7.
2. Ahmedov G., Sattorov A. O'zbekiston: Inson huquqlari va qonunlari. –T.: Adolat, 1999. –B.13.
3. Muhammadiyev R. Inson huquqlari kafolatining poydevori. // Huquq va burch. -2008. -№6. –B.17.
4. Vseobshchaya deklaratsiya prav cheloveka: prinyata rezolyusiey 217 A (III) Generalnoy Assamblei OON ot 10 dekabrya 1948 g. // Ros. gazeta. 1995. 5 apr.

5. Konvensiya o zaщite prav cheloveka i osnovnykh svobod, zaklyuchena v g. Rime 4 noyabrya 1950 g. // SZ RF. 2001. № 2, st. 163.
6. Mejdunarodnyy pakt «O grajdanskix i politicheskix pravax»: prinyat 16 dekabrya 1966 g. // Byulleten Verxovnogo Suda RF. 1994. № 12.
7. Konvensiya protiv rytok i drugix jestokix, beschelovechnyx ili unijayuyщix dostoinstvo vidov obraщeniya i nakazaniya: prinyata rezolyusiey 39/46 Generalnoy Assamblei OON ot 10 dekabrya 1984 g. // Rossiyskaya yustitsiya. 1995. № 4.
8. Konvensiya protiv transnatsionalnoy organizovannoy prestupnosti: prinyata v g. Nyu-Yorke 15 noyabrya 2000 g. Rezolyusiey 55/25 na 62-om plenarnom zasedanii 55-oy sessii Generalnoy Assamblei OON) // SZ RF. 2004. № 40, st. 3882.
9. Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar. To‘plam. / -T.: Adolat, 2014. – B.13-14.
10. Saidov A. Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari oliy qadriyat. // Huquq va burch. -2018. -№5. –B.10.
11. Cho‘tboyev M. Shaxs daxlsizlik huquqini cheklashning ba‘zi xalqaro standartlari. // Falsafa va huquq. -2008. №1. –B.76.
12. Fayziyev Sh.F. Sudgacha bo‘lgan bosqichlarda shaxsiy daxlsizlik. –T.: TDYuI, 2009. –B.4.
13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>. Murojaat qilingan sana: 02.01.2025-yil
14. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 23-modda. <https://lex.uz/docs/6445145>. Murojaat qilingan sana: 02.01.2025-yil
15. Brusnitsin L.V. O‘sha manba B-91-97.
16. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://www.lex.uz/acts /111453>. Murojaat qilingan sana: 06.02.2025.
17. O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. <https://www.lex.uz/acts/2107763>. Murojaat qilingan sana: 06.02.2025.
18. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni 2-modda. <https://lex.uz/docs /3027843?ONDATE=14.03.2024> Murojaat qilingan sana: 06.02.2025-yil
19. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasi 1-qismi. <https://lex.uz/acts/-54503>. Murojaat qilingan sana: 06.02.2025-yil
20. O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasi. <https://lex.uz/docs/-4159913>. Murojaat qilingan sana: 06.02.2025-yil
21. Umarxonov A.Sh. Odil sudlovga ko‘maklashuvchi shaxslarning xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy choralarni takomillashtirish muammolari: Y.f.d.diss. avtoreferati. –T.: IIV Akademiyasi, 2024. –B.20.
22. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 270-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 06.02.2025-yil
23. Baytin M.I. O‘sha manba: B-172-173.
24. Tomilova N.S. Принципы государственной защиты свидетелей и потерпевших: актуальность и проблемы // Bezopasnost biznesa. 2008. № 3. S. 272; Zaysev O.A. Stepen nauchnoy razrabotannosti problem gosudarstvennoy zaщity uchastnikov ugolovnoy sudoproizvodstva v Rossiyskoy Federatsii // Ugolovnaya yustitsiya. 2014. № 2(4). S. 20; Dmitrieva A.A.

Teoreticheskaya model bezopasnogo uchastiya lichnosti v rossiyskom ugovnom sudoproizvodstve: dis. ... d-ra yurid. nauk. M., 2017. S. 124.

25. Yepixin A.Yu. Ukaz. soch. S.167-170; Brusnisyn L.V. Ukaz. soch. S. 401; Dmitrieva A.A. K voprosu o sodержanii teoreticheskoy modeli bezopasnogo uchastiya lichnosti v rossiyskom ugovnom sudoproizvodstve // Vestnik Krasnodarskogo universiteta MVD Rossii. 2017. № 1 (35). S. 44-48.

26. Zaysev O.A., Yepixin A.Yu., Mishin A.V. Problemy implementatsii mejdunarodnogo opyta bezopasnosti uchastnikov rossiyskogo ugovnogo protsessa // Mejdunarodnoe ugovnoe pravo i mejdunarodnaya yustitsiya. 2018. № 2. S. 3-7.

